IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

OLIY TA`LIM TIZIMIDA TALABALARNI NAQSHBANDIYA TARIQATI BILAN TANISHTIRISH AHAMIYATI

Nabiyev Islom Karimovich

Qarshi Xalqaro Universiteti o`qituvchisi

Annatatsiya

Respublikamizda ilm-fanni yanada rivojlantirish, yosh avlodimizni bilimli, yuksak ma'naviyat egasi etib tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik singari axloqiy fazilatlarni shakllantirish, boy tarixiy merosimizni yosh avlodlar qalbi va ongiga singdirish, farzandlarimizni milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalashga oid chuqur islohotlat olib borilmoqda.

Kalit so'zlari

Islom dini, Naqshbandiya ta'limoti, ilm-fan, Bahouddin Naqshband.

Jahonda tobora jadallashib borayotgan globallashuv jarayonlari fuqarolik jamiyatini shakllantirish, ma'naviy-axloqiy salohiyat, aqliy kamolot fazilatlari va dunyoqarashga ega bo'lgan, umuminsoniy qadriyatlarga sadoqati shakllangan yoshlarni voyaga yetkazish, ularni ijtimoiy faollikka, mafkuraviy kurashchanlikka rag'batlantirishning pedagogik yechimlarini yaratishni taqozo etmoqda. Shu bois yoshlarni ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini rivojlantirishning strategik va taktik maqsadlarini belgilash va ularga erishish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, asl qadriyatlar asosida shaxs ma'naviyati hamda dunyoqarashini shakllantirish ijtimoiy-pedagogik jihatdan dolzarb vazifaga aylandi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodning jismoniy, intellektual va axloqiy jihatdan kamol topishiga, ularni islom madaniyatining manbalari asosida milliy tarixiy merosimizga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash kabi ustuvor yo'nalishlarda keng qamrovli tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Islom komil inson tarbiyasiga katta e'tibor beradi, uni shaxs va jamiyat taraqqiyotining, ma`naviyat rivojining asosiy jihati sifatida ko'radi. Islom dinining tarbiyaviy ahamiyati ilmga, hikmatga, axloqiy yuksaklikka da'vat etuvchi ta'limotlarida yotadi. Uning ahamiyati bugungi kunda yoshlar tarbiyasida nihoyatda katta ahamiyatga ega.

Tasavvuf tadrijiy taraqqiyotga ega ta'limot bo'lib, islom olamida VIII asrning o'rtalarida paydo bo'lgan. Dastlab u zohidlik harakati ko'rinishida insonlar orasiga keng kurtak yoyadi. Buning boisi shundaki, Payg`ambarimiz Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallam vafotlaridan keyin musulmonlar ko`pchilik jamoalari orasida ajralish yuz beradi, ayniqsa, xalifa Usmon roziyallohu anhu davrida mol-dunyoga ruju qo'yish, turli xildagi qimmatbaho tuhfalar bilan qarindosh-urug'lar, yaqin birodarlarni taqdirlash urfga aylandi. Umaviylar xalifaligi davrida esa, saroy hashamlari, dabdabali, bejirim bezaklar, oltin-kumushga berilish, xazina to'plash avj oldi Ya'ni, musulmonlar burchi bo`lgan diniy mashg'ulotlar, Alloh yo'lidagi toat-ibodat o'rnini dunyoviy ishlar, dunyo moliga muhabbat egallay boshladi. Bu vaziyat diniy ruknlarni ado etishni har qanday dunyoviy ishlar, boyliklardan ustun qo'ygan e'tiqodli kishilarning noroziligiga sabab bo'ldi. Ular orasida hadis to'plovchi muhaddislar, ilgaridan qashshoq bo'lib, uy-joy, mol-mulkka e'tibor qilmagan sahobalar

ham bor edi. Bularning bir qismi dinni himoya qilib, ularga qarshi chiqqan bo'lsalar, ikkinchi qismi qanoat va zuhdni («zuhd» so'zidan «zohid» so'zi kelib chiqqan) asosiy maqsad qilib olib, saroy ahli va sarvadorlar, boylar axloqiga qarshi norozilik belgisi sifatida tarkidunyochilik g'oyasini targ'ib etib, ijtimoiy faoliyatdan butunlay voz kechganlar, muntazam ravishda toati-bodat bilan mashg`ul bo`lganlar.

Tasavvuf, Islomiy ma'naviyatning o'ziga xos ma'naviy an'analarga asoslangan, shaxsiy rivojlanish, ilohiyotga yaqinlashish va insoniy xususiyatlarini o'z ichiga olgan tariqatdir. Tasavvuf, Islomning ma'naviy rolini rivojlantirish, insonning ruhiyatini yaxshilashi va ilohiyotga yaqinlashishi maqsadida mavjud bo'lgan bir tuzilma sifatida hisoblanadi.

Bilamizki yoshlar ongiga ta`sir etuvchi vositalar tufayli ularning milliy va diniy qadriyatlarga bo`lgan e`tiborlari yo`qolib bormoqda. Bu esa jamiyatda shakllanib rivojlanib kelayotgan shaxslarga juda katta salbiy ta`sir ko`rsatishi mumkin. Talabalar o`qish faoliyatlarida ham ularda insoniy sifatlar, fazilatlar katta ahamiyatga ega. Oliy ta'lim tizimida tasavvuf ta'limoti va uning tarkibiy qismi bo'lgan naqshbandiylik tariqati namoyandasi Bahouddin Naqshband qarashlari vositasida talabalar ma'naviyatini shakllantirishning nazariy-amaliy asoslarini ishlab chiqish hamda mazkur qarashlar vositasida yoshlar ma'naviyatini boyitishga yo'naltirilgan ilmiy metodik tavsiyalar yaratish bugungi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bahouddin Naqshband asos solgan ushbu tariqatda qalb pokligi, Allohni zikr qilish, shariat qonunlariga qat'iy amal qilishga katta ahamiyat beriladi. Bu tariqatning ta'limoti tavhid (Allohning yagonaligi) tamoyillariga asoslanib, taqvo, tavoze va fidokorona hayot kechirishning muhimligidir. Naqshbandiya tariqatining asosiy jihatlaridan biri bu shaxsning Xudo bilan munosabatiga urg'u berishdir. Maqsad, qalbni poklashga va ichki xotirjamlikka erishishga olib keladigan ilohiy bilan bevosita aloqani o'rnatishdir. Naqshbandiya tariqati ham bag'rikenglik, zo'ravonlikdan voz kechish kabi umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etishda muhim o'rin tutgan. Din, irqi, millatidan qat'i nazar, barcha insonlarga mehr-muhabbat va hurmat tamoyillari naqshbandiya an'anasi ma'naviy yo'lining ajralmas qismidir. Ushbu yondashuv turli xil madaniy va diniy kelib chiqishi bo'lgan odamlar o'rtasida birgalikda yashash, qabul qilish va uyg'unlik ruhini rivojlantirishga yordam berdi.

Tasavvuf ta'limoti, jumladan, Bahouddin Naqshband tariqati, pedagogik qarashlarini talabalar ongiga singdirishda mazkur o'quv fanlarining bu boradagi imkoniyatlarini o'rganish shundan dalolat beradiki, ularning insonni ma'naviy barkamollikka chorlovchi pedagogik g'oyalarini oliy ta'lim tizimida, auditoriya va auditoriyadan tashqari ta'lim-tarbiyaviy tadbirlar jarayonida "Pedagogika tarixi", "Umumiy pedagogika" o'quv fanlari doirasidagi ayrim mavzular mazmuniga singdirgan holda talabalarga taqdim etish lozim.

Naqshbandiya ta'limotining «Diling Allohda, qo'ling mehnatda bo'lsin» shiorining xususiyatlari:

1. Tarkidunyochilik ta'qiqlanadi, inson halol mehnat bilan yashashi lozim;
2. Ilm-ma'rifat va kasb-hunar insonni ma'naviy kamoloti, jamiyat rivojiga kuchli vosita;
3. Insonning hayotida o'z o'rni va yashashga sabab omil – mehnatsevarlikdir, bu esa butun dunyo mushkulotining kalitidir;

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

4. Ushbu shior: Yuksak ilohiy nishon. qadriyatga ega bo'lib, inson og'ir damlarda dilda Alloh madadi ila o'zini yo'qotmaydi;
5. Salbiy odatlarni oldini oladi (nopoklik, ishyoqmaslik, murtadlik, loqaydlik);
6. Poklanish va kamolotning asosidir, salbiy oqimlarga tushishdan asraydi;

Naqshbandiya tariqatining ma'naviyati Islomiy tariqatlar ichida o'ziga xos xususiyatlar bilan ajratilgan, uning asosiy muhim maqsadi insonlarni Allohga yaqinlashish, shaxsiy rivojlanish va insoniy faoliyatda jamiyat uchun xizmat qilishdir.

Oliy ta`lim tizimida talabalarga Naqshbandiya tariqatining asoslarini o`rgatish, ularning kelajagi uchun katta ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf " Tasavvuf haqida Tasavvur" Toshkent-2016.
2. Najmiddin Komilov "Tasavvuf " Toshkent, Movarounnahr nashriyoti-2009
3. Isroilov Maxamadjon Ismoilovich (2022). NAQSHBANDIYA TA'LIMOTINING TARBIYAVIY AHAMIYATI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2 (Special Issue 2), 88-91.
4. Xo'jamuratov I.R. Islom, milliylik, qadriyat. Toshkent.1993 y.

WORDLY KNOWLEDGE